

**ABDUQAYUM YO'LDOSHEV IJODINING O'RGANILISHI**

Farg'ona davlat universiteti

1-kurs magistranti

Ibroximova Zaynabxon Akbarjon qizi

ANNOTATSIYA: *Abduqayum Yo'ldoshev o'zbek adabiyotining zabardast vakilidir. A.Yo'ldoshev o'zining noan'anaviy ijodi, asarlari bilan ko'plab kitobxonlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Uning ko'plab asarlari to'plam, kitob hoida nashr qilingan. Shu sababli ham uning ijodi adabiyotshunos olimlarning e'tiborini tortib, bu borada ilmiy ishlar qilinishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqolamizda ijodkor asarlari tahliliga oid ilmiy ish va maqolalar xususida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *janr, janr xususiyatlari, xarakter, inson konsepsiya, syujet, davr va qahramon, konflikt va uning turlari, obraz.*

ABSTRACT: *Abdukayum Yuldashev is the Guardian Representative of Uzbek literature. A.Yuldashev has been attracting its non-traditional creation and many readers with his works. Many of his works were published in collection and book condition. That is why his work is leading to the attention of literary scholars, which is leading to scientific work in this regard. This article contains about scientific papers and articles on an analysis of artistic works.*

Keywords: *genres, genre features, character, human concept, plot, period, and hero, conflict and its types, images.*

O'zbek poeziyasida o'z o'rnini va uslubiga ega bo'lgan ijodkorlardan biri bo'lmish Abduqayum Yo'ldoshevdur. Ushbu ijodkorning adabiyotdagi turli janrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, albatta, tahsinga loyiqdir. Uning asarlari adabiyotshunoslarimiz nazaridan chetda qolmayotganligi esa adib ijodining badiiyati yuksak ekanligidan darak beradi. Bu mavzu doirasida qilingan ilmiy-tadqiqot ishlari kam bo'lsa-da, ba'zi manbalardan yetarlicha ma'lumotlar olishimiz mumkin.



Xususan, M.Jo'rayevaning "Zamonaviy o'zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi" nomli dissertatsiyasida aynan obyekt sifatida Abduqayum Yo'ldoshev va Zulfiya Qurolboy qizi asarlari olingan bo'lib, bu borada bir qancha yangiliklar amalga oshirilgan. Jumladan, adibning "Boy" nomli hikoyasi tahlil qilinarkan, hikoya qahramoni Xo'rozqul obrazi orqali biroz kinoyaviy usulda kishilarning yangicha qarashlari ko'rsatib berilganligi¹ haqida ma'lumot beriladi. Adibning boshqa asarlari tahlilida ham asosan inson konsepsiyasiga e'tibor qaratilarkan, uning nazariy asosi va ijtimoiy-psixologik aspektlari ushbu ilmiy ish doirasida o'rganilganlini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu mavzuda G.Qodirova ham A.Yo'ldoshevning "Timsohning ko'z yoshlari" qissasi asosida o'z ilmiy qarashlarini bayon etadi. U o'zining maqolasida qissadagi Salomat opa va Munisa obrazlariga alohida to'xtalib o'tarkan, bu ikki xil dunyoqarashga ega bo'lgan qahramonlar orqali ayol psixologiyasining turli xil xususiyatlari ochib berilishini ijodkorning yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolat deya ta'kidlaydi². Asar voqealari Munisa obrazi atrofida aylanarkan, uning o'ziga xos pok dunyosi bor ekanligiga, hayotning hali qora tomonlariga duch kelganligiga guvoh bo'lamiz. Aynan qissaning janr xususiyatlari sifatida e'tirof etilgan asar syujetining bosh qahramon sarguzashtlaridan iborat bo'lishi ko'plab olimlar tomonidan ta'kidlab o'tilgan. Ammo A.Xolmurodov o'zining "Qissa janri va hozirgi o'zbek qissachiligi" maqolasida ushbu fikrlarga ilova sifatida ushbu jumlaning qayd etadi: "asar syujetining faqat bir qahramon faoliyatiga asoslanishi mazkur janrga xos yetakchi xususiyat sifatida qabul qilinishi mumkin. ushbu masalada kichik bir izoh berishga to'g'ri keladi. Bu shundan iboratki, qissa syujeti asosida yakka qahramonning butun umri davomidagi sarguzashtlari emas, balki qahramon hayotining muayyan davri voqealari yotadi. Shu bois janr xususiyatlari haqida gap ketganda, hajmning katta yoki kichikligi emas, balki voqealar qamrovi hamda rivojining romanga nisbatan yengilligini va hikoyaga nisbatan murakkabligini hisobga olish ma'qulroq"³. Ushbu fikrlarda ko'rib

¹ M.Jo'rayeva. Zamonaviy o'zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi. Monografiya. T: "Mumtoz so'z", 2023. 26-b.

² G.Qodirova "Abduqayum Yo'ldoshevning "Timsohning ko'z yoshlari" qissasida yangi inson konsepsiyasi" maqola.

³ Xolmurodov A. "Qissa janri va hozirgi o'zbek qissachiligi. Til va adabiyot jurnali. 2006/3. – B. 47.



turganimizdek qissa janrida bosh qahramonning butun hayoti emas, balki uning ma'lum bir davrida yuz bergan voqealar bayoni yotadi.

Nosirning ijodida yoritilayotgan muammolarning turli xil ekanligi mavzular ko'lamini ham rang-barang bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu esa adabiyotshunoslar o'rganishi kerak bo'lgan obyektning o'ziga xos jihatlarini belgilab beruvchi muhim unsurdir. Y.Solijonov o'zining "Go'zallikning turfa ranglari" maqolasida go'zallikni yaratuvchi ham, uni barbod qiluvchi ham insonning o'zi ekanligini qayd etadi. Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalari misolida inson va uning bugungi qarashlarini shunday izohlaydi: "to'plamga kiritilgan o'n yetti hikoyaning har biri o'quvchini mushohadaga undaydi va tabiiy, axloqiy, ma'naviy, madaniy go'zalligini shaxsiy manfaati yo'lida qurbon qiladigan, kerak bo'lsa, undan jirkanishgacha boruvchi tabaqalarning asl qiyofasini fosh qiladi. Yozuvchi "Alvido go'zallik..." hikoyasida sho'rolar hukmronlik qilib, insonni haqiqiy go'zallikdan mahrum etgan: "Go'zallikning manbayi mehnatdir" degan aqidaga ham tuzatish kiritadi"⁴. Bu fikrda anglashimiz mumkin bo'lgan narsa bu go'zallik va unga zid ravishda qo'yilgan sobiq tuzum davridagi odamlarga faqatgina tekin mehnat kuchi sifatida qarash kabi g'oyalardir. Yozuvchining yana bir "Bezori" nomli hikoyasi tahlil etilgan R.Zaripovaning "Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida xarakter va ruhiyat ifodasi" maqolasida asar qahramoni bo'lmish No'monjon obrazi orqali bolaligi "paxta ishi" bo'lgan qiyin bir davrda ulg'aygan avlodning ma'lum bir qismini ya'ni mutelikka bosh egib yashashga o'rgatilgan, turmush sharoitini yaxshilash uchun durustroq bir ishga qo'l urishga ham jur'ati yetmaydigan, hayotini faqat qorin g'amida o'tkazishga o'rgatilgan insonlar qismati ochib berilganligi qayd etiladi⁵. Bular ko'rinadiki, A.Yo'ldoshev asarlarida ifoda etilayotgan davr va qahramon masalasi ham muhim hisoblanadi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, badiiy asarni g'oyaviy badiiy jihatdan tahlil etishda davr masalasi yetakchilik qiladi. Chunki ijodkor o'zi yashab turgan muhit, davr va siyosat talablaridan kelib chiqqan holda asar yaratadi ya'ni bunda davr

⁴ Солижонов Й. Гузалликнинг турфа ранглари (Бир хикоя атрофидаги уйлар) // Шарк юлдузи, 2012, №1. – Б.151.

⁵ Zaripova R. "Abduqayum Yo'ldoshev hikoyalarida xarakter va ruhiyat ifodasi". Maqola.



va qahramon bir-biriga mutanosib bo'lishi, qahramon davrdan ortda qolishi yoki undan o'zib ketishi ham mumkin.

Ijtimoiy hayotda inson mehnatkash qatlamining yoritilishida qishloq va shahar syujetlari o'zaro bir-birini to'ldiruvchi ahamiyatga ega. Insonning muqaddas xilqati, orzulari, umidlari, oilaparvarligi, sabr-u qanoati ko'p qissalarda o'xshash syujetlar orqali namoyon bo'ladi. Odamzodning orzulari bilan yashashga mahkum obrazi istiqlool davri kishisining ziddiyatalari poetik asar tarkibida ham o'z aksini topadi. Ushbu masala G.Xasanova tomonidan adibning "To'y" nomli qissasi tahlilida ochib berilgan. Bu borada maqola muallifi o'z fikrlarini quyidagicha ifodalaydi: "yozuvchi ushbu asarda nogiron bo'lib qolgan Azimjon obrazi yordamida keraksiz urf-odatlar orqali millat ongining nogiron bo'lib borayotganini ko'rsatadi". Bu fikrlar, albatta, o'rinlidir, chunki ushbu qissa qahramonlarining ma'nisiz orzu-havaslarini, qandaydir buyumlarni yoshlarning baxti va taqdiridan ustun qo'yish holatlari ijodkor tomonidan ham ayanchli tarzda tasvirlab berilgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, zamon o'zgargani sayin inson va uning qadriyati ham o'zgarib boradi. Masalan, adibning "E'tirof" nomli hikoyasida ham shunga o'xshash voqealar tasviri beriladi. "Bunda hikoyaning bosh qahramoni Abdulla qo'rboshi jamiyat hayotidagi axloqiy me'yor va mezonlarning mavjudligiga qarama-qarshi kurashuvchi, shuhratparastlik kasaliga chalingan yigit bo'lib, ko'pchilik uning oldida mutelik bilan bosh egishini xohlaydi. Shu yerda insoniyatning ma'naviy qadriyat sifatidagi obyektlarga bo'lgan munosabati o'zgarganiga guvoh bo'lamiz"⁶.

Abduqayum Yo'ldoshev yaratgan asarlarini o'qir ekanmiz, unda yaratilgan obrazlarning o'zgachaligi, bir-birini takrorlamasligi bilan ham ajralib turadi. Adib ijodida maishiy hayotni tasvirlovchi qaynona kelin kabi siyqasi chiqayozgan munosabatlardan qochiladi. Yozuvchi o'z asarlarida orginal obrazlar, qahramonlar yaratishga harakat qiladi. Asardagi qahramonlarning xatti-harakatlari, o'y-fikrlari va bir-biri bilan bo'lgan munosabatlari qaysidir ma'noda o'quvchini mushohada qilishga undaydi. Bunda A.Abulqosimovning "Abduqayum Yo'ldoshev qissalarida obrazlar" maqolasida aytilgan so'zlari o'rinlidir: "Ijodkor asarlarida, yurakning nozik qirralari,

⁶ M.Jo'rayeva. Zamonaviy o'zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi. Monografiya. T: "Mumtoz so'z", 2023.



sevgining chegarasiz sarhadlari, turmush tashvishlariga o'ralashib qolishning azoblari-yu dunyoning yaralishidan bugungacha bo'lgan oq-qora, yaxshi-yomon ichidagi hayotni jonlantirishi, kezi kelganda o'yga toldirishi, ba'zan kuldirib, yig'latishi bilan bugungi kun nasrida o'z ismini o'chmas qilib yozishga ulgurdi"⁷. Ushbu maqolada adibning obraz yaratish mahorati haqida so'z yuritilar ekan, "Sunbularning ilk shanbasi" qissasidagi "shanba" kuniga maqola muallifi obraz sifatida yondashadi, bunda aynan sunbula oyining ilk shanbasini o'quvchi qalbida ham, qahramonlar qalbida hayajon uyg'otuvchi kun sifatida talqin etadi. Darhaqiqat, hafta kunlariga yuzlanadigan bo'lsak, har bir kunning o'ziga xos xislati va ma'nosi bor. Masalan, "chorshanba" – "murodbaxsh kun", "juma" esa bizning islom dinimizda muqaddas kun ya'ni niyatlar amalga oshadigan kun sifatida qaraladi. Xo'sh, bu o'rinda shanba-chi? "Sunbularning ilk shanbasini muallif uch ramziy ma'noda qo'llagan bo'lishi mumkin. birinchidan– shodlik kuni, tavba-tazarru kuni, sir-asrorlar ochiqalanadigan, bir so'z bilan aytganda, diydor, visol kunidir; ikkinchidan – ikki yoshning hayotida sodir bo'lgan muhim voqealar kuni; uchinchidan – qahramonlarning har ikkalasi yoki bittasi sunbula burjida tug'ilganligini anglash mumkin. Uchinchi ma'noga quvvat sifatida asar voqealari, qahramonlar ruhiyatidagi holatlar, shu kunning ular uchun zarurlik darajasini aytishimiz mumkin"⁸. Bundan ko'rinadiki, yozuvchining aynan sunbula oyi va shanba kuniga murojaatida ham ramziylik mavjud. Shuningdek, ushbu qissa doirasida tahlil qilingan xarakter va ruhiyat masalasi D.Safarovaning "Sunbularning ilk shanbasi" qissasida xarakter va ruhiyat ifodasi"⁹ nomli maqolada o'z aksini topgan. Ushbu maqolada muallif xarakter jihatdan asarning uch qahramonini ta'kidlab o'tadi, bular: yigit va qiz, Abduqayum. Lekin boshqa tomondan qaraganda qissada yigitnigina xarakter darajasiga chiqqanini ko'rishimiz mumkin. Sababi, yigitning o'ziga xos xatti-harakatlari, o'ylari, undagi oshiqlik darajasi tom ma'noda misol bo'la oladi. Ammo Abduqayum obrazida bunday holatlarni ko'rmaymiz. Shuningdek, qizning ham xakteri to'liq holatda ochib berilmagan, biz bu obrazni asarning bir, ikki o'rinlaridagina kuzatamiz. Biroq asar

⁷ Abulqosimov A. "Abduqayum Yo'ldoshev qissalarida obrazlar". Maqola.

⁸ Nizomov F. "Sunbularning ilk shanbasida ramziy tasvir". Maqola.

⁹ Safarova D. "Sunbularning ilk shanbasi" qissasida xarakter va ruhiyat ifodasi". Maqola.



yigit va qizning muhabbati asosiga qurilgan, muallif ta'kidlab o'tganidek bu sentimental qissa bo'lib, asarda xarakterlar o'rtasidagi konflikt yoki jamiyat o'rtasidagi konflikt kuzatilmaydi, ba'zi o'rinlarda yigitning kolliziya konfliktga kirishganini ko'rishimiz mumkin.